Креативный педагогический подход в музыкально-теоретических и практических занятиях по искусству макома 582
Нурматова Фируза Муминовна
Система упражнений по методике обучения средствам речевой выразительности узбекского языка 587
Фаттахова Д. А.
Oliy ta’limda kompetensiyaga asoslangan o‘qitish modellari 592
Ernazarov Alisher Ergashevich, Chinqulova Gulmehra
The Concept of Symbols in Linguoculturology 598
Hamraqulova Gulandom Sodiq qizi
Raqamli o‘yinlarga (mobile games) qaramlikning kognitiv samaradorlikka salbiy ta’siri 601
Turamov Muhammadzohid Rustamjon o‘g‘li
OTM talabalarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash asosida ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirishning zamonaviy metodlari 605
Sobirov Zahriddin Sadriddinovich
Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarda kiryativlikni rivojlantirish 609
Qo‘chqarov Mirzavali Qo‘zibayevich
Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining axloqiy tarbiyasini shakllantirish 613
Yaqubova Dinora Bahodirovna
Zamonaviy ta’lim tizimida AR (Augmented Reality) texnologiyalarining qo‘llanilishi 617
Abdumo‘minov Burxonjon Sunnatillo o‘g‘li

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

The Role of Psychological Support in the Formation of Students' Socio-Emotional Competence in Preschool Education 622
Kamoldinova Diyora Jaloliddin qizi

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi 626
Xudoynazarova Moxira Xakimovna

Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini metodlar orqali rivojlantirish 629
Ro'zmetov Ravshan Sharipbayevich

Bo'lajak tarbiyachilarda muloqot madaniyatini tarbiyalash 633
Uljayeva Sevara Abdirazzoqovna

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan zamonaviy darsliklar tuzilishi va mazmuni 638
Po'latova Marjona Inomjon qizi

STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'limida qo'llash bo'yicha xorijiy tajribalar 643
Saidova Nigora Olimovna, Pirmatova Zaynabxon Elmurod qizi

Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish 646
Ergasheva Sunbula Baxtiyor qizi

O'quvchilarda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning shakllanishi va uning dolzarb muammolari 650
Gapparova Mastona Safaraliyevna

Adabiyot darslarini o'qitishda 5E modelidan foydalanish 654
Abdiraupova Zarnigor Abdinabi qizi

Oliy ta'limda kompetensiyaga asoslangan o'qitish modellari 657
Ernazarov Alisher Ergashovich, Chinqulova Gulmehra

Traditional Techniques and Modern Approaches in the Production of National Costumes 665
Jabborova Dilshoda Xolmamat qizi

Pedagogik platformalar va kognitiv-didaktik yondashuvlar integratsiyasi yordamida talabalarning kasbiy tayyorgarlik tizimini yangi bosqichga olib chiqish 668
Raxmonov Omadjon Mamasidiq o'g'li

Aqli zaif o'quvchilarda disgrafiyani bartaraf etishda assistiv texnologiyalarning ahamiyati 672
Usmonov Umid Allayorivich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish 676
Adizova Nigora Baxtiyorovna, Akbarova Sarvinoz Sadriddinovna

Tadqiqotchilik kompetentligi pedagogik muammo sifatida 681
Ergashev Nozim Nabiyevich

Teaching Reading to Young Learners: Essential Principles for Primary School Teachers 684
Toshtanova Maftuna Xamidjon qizi

Tarmoq qurilmalari va tizimlarini boshqarish modulini o'qitish orqali o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash 687
Karimova Charos Abduhalim qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki nutq rivojlanishining psixolingvistik asoslari 691
Musayeva Nafisa Kudratovna, Muxammadova Saodat Muzaffar qizi

"Kasbiy ma'naviyat" fani bo'lajak pedagoglarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni intensiv rivojlantirish omili 695
Ismoilov Yoqubjon Quchqarboyevich

Yapon tilini o'rgatishda talabalarning gapirish ko'nikmasini rivojlantirish: tamoyillar, bosqichlar va innovatsion usullar 699
Baqoyev Navro'zjon Abdullo o'g'li

Texnologik ta'lim jarayonida ixtirochilik va loyihalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari 705
Zokirova Nargiza Akbarjonovna

Bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning psixologik asoslari 710
Eshnazarova Farida Jo'raqulovna

Ta'lim islohotlari sharoitida genderga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari 714
Yaxyayeva Sojida Abduraximovna

Ko'rsatish olmoshlarining vazifaviy uslublarda qo'llanilishi 718
Berdiyeva Malika

Nazorat turlari orqali o'quvchilarning savodxonlik kompensatsiyasini shakllantirish 721
Xoldarova Irodaxon Valijonovna, Jo'rayeva Shodiya Kenjaali qizi

Zamonaviy boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida o'quvchilarda lug'atlar bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi 726
Buvajonova Mohiraxon Usmonali qizi

Boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari: innovatsion taraqqiyot, metodik yangiliklar va istiqbollari 731
Nazarova Mohigul Akmalovna

Maktab va pedagogika institutlari o'rtasida amaliyotga yo'naltirilgan dual ta'lim modelini takomillashtirish: muammolar va yechimlar 736
Arabova Muxiba Bazarovna

Помощь советского государства в подготовке кадров для арабских государств 740
Хомидова Камола

Место Узбекистана в развитии культурной сферы Советского союза во второй половине XX века .. 744
Бекназаров Собиржон

Toshkent xalqaro kinofestivallarining Arab davlatlari va Afrika mamlakatlari kinosan'atida tutgan o'rni 748
Sharifov Shoxjaxon To'lqinjon o'g'li

Ekonometrika fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari va istiqbollari 752
Bobonorova Qundizxan Quralbay qizi

O'quvchi faolligini oshirishda jadid maktablari tajribasi va faol ta'lim metodlarining integrativ qo'llanilishi .. 759
Bobonazarov Orif Abrayqulovich

Влияние гендерной лингвистики на развитие психолингвистических исследований в Узбекистане .. 764
Мусаева Елена Казимовна

Psixik rivojlanishni tashxislashda psixofiziologik usullardan foydalanish samaradorligi 767
Sh. L. Rahmonova

Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish 770
Saidova Dilbar Erkinovna

Ingliz tili o'qitishda integrativ (CLIL) texnologiyasining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos modellarini ishlab chiqish 773
Xakimova Xosiyat Jurayevna

Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda sun'iy intellektdan foydalanish usullari 776
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna, Odiljonova Shoxsanam Abdug'appor qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishda innovatsion o'yin metodlarining ahamiyati 785
Ikromov Ilxom Muxamadraximovich

Tabiat tasvirining adabiy janrlarga ko'ra o'ziga xosliklari 790
Fozilova Mohigul Farxodovna

Методические подходы к развитию прагматической компетентности старшеклассников на основе чтения аутентичных материалов 794
Исаматдинова Машхура Икромжон кизи

O'zbek tilida "zahar" konseptining leksik-semantik va pragmatik xususiyatlari 799
Shokirov Sherali Ibrohimovich, Baxramov Xabibillo Sadikovich

Integrativ modulli o'qitish tizimi samaradorligining miqdoriy va sifat tahlili 803
Nurmanova Nazira

Sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda STEAM ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati 807
Toshova Shaxnoza Tojinorovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining boshlang'ich sinf o'quvchilariga harakatga doir masalalarni klaster metodida o'rgatish 811
Badalov Dilmurod Abdixalilovich

Ona tili darslarida o'quv lug'atlaridan foydalanishning o'quvchilarning og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishdagi didaktik asoslari 817
Ahmedova Adiba Ulug'bek qizi

Philosophical Aspects and Analysis of the Regularities of the Formation of Geo-Economic Thinking 822
Ubaydullayev Islomjon Abdullayevich

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishga tayyorlashning pedagogik asoslari 826
Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining (Media/Mass Communication) roli 831
Bo'ronova Dilrabo Ne'matullayevna

Inkluziv maktab sharoitida kichik maktab yoshidagi bolalarda ijtimoiy-perseptiv tajribani shakllantirish 835
Karimova Zulfiya Abduraxmanovna

TEACCH konsepsiyasi – autizm va kommunikativ buzilishlari bo'lgan bolalarni davolash va o'qitish dasturi 839
Murodova Sarvigul Raxim qizi

Модернизация кадровой политики дошкольных учреждений через инновационные мониторинговые механизмы 843
Ким Нигора Каримовна

Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini ergonomik yondashuv asosida rivojlantirish 847
Usmonova Xafiza

Pedagogik improvizatsiya asosida talabalar o'quv faoliyatini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari 852
Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna

Talabalar orasida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish 857
Nurmatova Madina Odiljon qizi, Qo'shoqova Farangiz Azizbek qizi

O'quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash – ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida 861
Xaydarov Oxunjon Murodjonovich

Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mustaqil ta'limning ilmiy-metodik ahamiyati 866
B. Normamatova

Talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirishning variativ modeli va uning asosiy komponentlari 869
Bahranova Hulkar Bahran qizi

Konvensial yondashuv asosida talabalarni mustaqil ta'lim olish samaradorligining didaktik imkoniyatlarini rivojlantirish 872
Berdiyev Bahodir Ravshanovich

Kontekstli yondashuvga asoslangan o'quv-ijodiy faoliyatning turlari 875
Botirova Zilola Nodirovna

Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish 878
Ergasheva Sunbula Baxtiyor qizi

Boshlang'ich sinflarida ta'lim o'quvchilarga sonlar haqida ma'lumot berish 882
Hakimova Zulfizar Umrzoq qizi

Biologiya ta'limida elektron ta'lim (E-Learning) va aralash ta'lim (Blended Learning) texnologiyalarining samaradorligini tahlil qilish 886
Kozimov Akbarjon A'zamjon o'g'li

Alisher Navoiy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid fikrlari tahlili 891
M. Ibragimova

Integratsiyalashgan dars ta'limiy faoliyat samaradaorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida 894
Mahmatqulova Xosiyat Bobomurod qizi

Tarbiyalanuvchilarni xalq og'zaki ijodi namunalari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmunini ochib berish 897
Murodillayeva Durdona Dilmurodovna

Sun'iy intellekt davrida bolalar adabiyoti: raqamli qahramonlar, interaktiv ertaklar va bolaning ijodiy tafakkuri rivoji 900
Normurodova Nigora Abdusattorovna, Sharipova Iroda Rashid qizi

Qadimgi va o'rta asr mutafakkirlarining matematika fanining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni 903
Quvvatova Ozoda Gulbek qizi

Shaxs xolistik rivojlanishi – psixologik-pedagogik muammo sifatida 906
Rashidova Xurriyat Sulaymonova

Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari 908
Ravshanova Kamola Toxirovna

Matematikaga rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimlar 911
To'rayeva Kamola Vosidjon qizi

Umumiy o‘rta ta’limda mexanika masalalarini yechish metodikasi va o‘qitish jarayonining didaktik asoslari 914
Toxirova Maxfuzaxon Otaqo‘ziyevna

Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagogalarining kasbiy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish 916
Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYAGA OID FIKRLARI TAHLILI

M. Ibragimova
Xalqaro innovatsion universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu ishda buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari tahlil qilinadi. Navoiyning ilmiy va badiiy merosi orqali yosh avlodda insonparvarlik, adolat, mehr-shafqat, vafo, halollik kabi yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishga doir g'oyalari yoritiladi. Uning asarlari jamiyatda ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazishning ahamiyatini asoslab beradi. Tahlil jarayonida shoirning pedagogik va axloqiy qarashlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, axloq, tarbiya, insoniy fazilatlar, insonparvarlik, adolat, ma'naviy barkamollik, yosh avlod tarbiyasi.

Abstract: This paper analyzes the issues of spiritual and moral education in the works of the great thinker and poet Alisher Navoi. Navoi's scientific and artistic legacy reveals his ideas on forming such high human qualities as humanity, justice, compassion, devotion and honesty in the younger generation. His works substantiate the importance of nurturing a spiritually mature generation in society. The analysis places particular emphasis on the poet's pedagogical and moral views.

Key words: spirituality, morality, education, human qualities, humanity, justice, spiritual maturity, education of the younger generation.

Аннотация: В данной работе анализируются вопросы духовно-нравственного воспитания в творчестве великого мыслителя и поэта Алишера Навои. Через научное и художественное наследие Навои раскрываются его идеи о формировании у подрастающего поколения таких высоких человеческих качеств, как гуманность, справедливость, сострадание, преданность и честность. В его произведениях обосновывается важность воспитания духовно зрелого поколения в обществе. В процессе анализа особое внимание уделяется педагогическим и нравственным взглядам поэта.

Ключевые слова: духовность, нравственность, воспитание, человеческие качества, гуманность, справедливость, духовная зрелость, воспитание подрастающего поколения.

KIRISH

Yosh avlodni ta'lim-tarbiya jarayoni har bir jamiyat uchun dolzarb va ahamiyatli bo'lgan hamda shunday bo'lib qoladigan jarayondir. Chunki jamiyat taraqqiyoti ko'p jihatdan shu jamiyat a'zolarining qanchalik bilimli, ongli, ma'naviy va axloqiy jihatdan yetuk tarbiyalanganlik darajasiga bog'liq. Insoniyatning shu kungacha bosib o'tgan murakkab rivojlanish yo'li ezgu maqsadlarga uzluksiz ma'naviy tarbiya bilangina erishish mumkinligini isbotlab kelgan. Zero, ma'naviyat – inson hayotining asosi, irodani baquvvat qiladigan va vijdonni uyg'otadigan beqiyos kuch, barcha dunyoqarashning mezonidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yoshlarimizni umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda ma'naviy merosdan keng foydalanish milliy madaniyatimiz rivojida muhim o'rin tutadi. Sharq mutafakkirlari merosini o'rganish, undan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish har bir pedagogning vazifasidir. Inson ma'naviy kamoloti barcha zamonlarda ham yuksak aql egalarining diqqat markazida bo'lgan. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Kaykovusning "Qobusnoma", Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Ibn Sinoning "Solomon va Absol", Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", Husayn Voiz Koshifiyning Husayn Boyqaroning o'g'li Abdul-

muhsin Mirzoga bag‘ishlab yozgan “Axloqi Muhsiniy” va “G‘utuvvatnomai Sultoniy” asarlari buning yorqin dalilidir. Mazmun-mohiyatiga ko‘ra ularning har birini ijtimoiy “Odoblar qomusi” deb baholash mumkin.

Binobarin, Alisher Navoiyning ta’limiy-axloqiy qarashlarida ham inson kamoloti masalasi asosiy o‘rinni egallaydi. So‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy o‘z ijodiyotida komil inson tarbiyasi bilan bog‘liq ta’limiy-axloqiy muammoni tiriklikning tub mohiyati sifatida talqin etgani bejiz emas. Akademik V. Zohidov qayd qilganidek: “Navoiy ijodining, amaliy faoliyatining eng asosiy, markaziy masalasi, yo‘nalish nuqtasi har narsadan oldin inson taqdiri, baxt-u saodati, uning yaxshi yashashi, bu uchun zarur jamiyat masalalaridir” [5, 106-b].

“Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g‘ururi, sha’n-u sharafini dunyoga tarannum etgan o‘lmas so‘z san’atkoridir. Ta’bir joiz bo‘lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so‘zlovchi biron bir inson yo‘qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e’tiqod bilan qaramasa”, – deb ta’riflaydilar [4, 29–30-b]. Alisher Navoiyning butun umri davomida inson tabiati va ma’naviyatiga oid kuzatishlari, axloqiy-ta’limiy xulosalari “Xamsa”, “Nazmul javohir”, “Munojot”, “Vaqfiya”, “Majolis-un nafois”, “Arba’in”, “Mahbub ul-qulub” kabi asarlarida o‘z aksini topgan. Buyuk shoir “Mahbub ul-qulub” asarida o‘z kuzatishlari xususida quyidagilarni yozadi: “Har ko‘cha-ko‘yda yuribman va olam ahlidin har xil kishilarga o‘zimni yetkazibman. Yaxshi va yomonlikning aslini ham, zahrini ham tatib ko‘rdim. Goh pastkash va baxil kishilar qoshida xo‘rlandim va razil-nokaslar oldida e’tiborsiz bo‘ldim. Kimki har xil kishilar bilan suhbatlashish va yaqinlashishni havas qilsa, kaminaning bu tajribasi yoshlar uchun yetarlidir”.

TAHLIL VA NATIJALAR

G‘azal mulkining sultoni Alisher Navoiy o‘zining ko‘plab asarlarida inson hayoti va uning tarbiyasi bilan bog‘liq foydali fikrlarni takror-takror ilgari surgan. Allomaning lirik merosi, “Xamsa”si, qator doston va tazkiralarida komil inson, uning jamiyatdagi o‘rni, fazilatlari shunday o‘ziga xos talqin qilinganki, oradan qancha asrlar o‘tmasin, zamonlar o‘zgarsa ham, ularning ahamiyati hanuz saqlanib kelmoqda.

Professor S. Nishonovaning fikricha, Navoiy tasavvuridagi komil insonga xos bo‘lgan chin insoniy fazilatlar – ijodkorlik, o‘zlikni anglashga kuchli ishtiyoq, ilm-fanga muhabbat kabi xislatlar bilan chambarchas bog‘liq. Chunki baxtli hayotga intilgan har bir ijodkor, oqil va qobiliyatli kishi o‘zining kuch-quvvati hamda aql–zakovatiga ishonadi. Shuning uchun Navoiy ilm-fanning inson tafakkuri va ma’naviy kamolotidagi o‘rni haqida so‘z yuritar ekan, ilmni qorong‘ilikni yoritadigan chiroq, hayot yo‘lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko‘rsatadigan omil sifatida ta’riflaydi [6,98-b].

Buyuk alloma Alisher Navoiy tarbiya sohasiga bag‘ishlangan alohida bir butun asar yaratmagan bo‘lsa-da, tarbiya haqidagi qimmatli fikrlarini turli ilmiy va adabiy asarlarida ifoda etgan. Ana shu asarlardan foydalanish orqali yosh avlodni ma’naviy jihatdan yetuk, barkamol shaxs sifatida shakllantirish nihoyatda muhimdir.

Navoiyning didaktikaga oid asarlaridan eng muhimlaridan biri – “Mahbubul qulub”dir. Asar uch qismdan iborat bo‘lib, birinchi qism turli ijtimoiy tabaqalar haqida, ikkinchi qism axloq va olijanob fazilatlar haqida, uchinchi qism esa tarbiyaviy va ma’rifiy ahamiyatga ega bo‘lgan hikmatli so‘zlar, maqollar va pand-nasihatlarni o‘z ichiga oladi. Unda maktabdorlar, mudarrislar haqida ham iliq fikrlar bildirilgan. Asarning “Dabiriston ahli zikrida” deb nomlangan 18-faslida o‘qituvchilarning fazilatlari va faoliyatlari ta’riflanadi.

Alisher Navoiy fikriga ko‘ra, “go‘zal xulq–atvor, yaxshi xulq nishonasi o‘ntadir: yaxshilik qilish, insofli bo‘lish, boshqa odamdan ayb qidirmaslik, nojo‘ya harakat qilayotgan kishini to‘g‘ri yo‘lga boshlash, aybiga iqror bo‘lgan insonning uzrini qabul qilish, boshqalarning mashaqqatini zimmasiga olish, faqat o‘z manfaatini ko‘zlamaslik, ochiq yuzli va shirinso‘z bo‘lish, muhtojlar hojatini chiqarish, muloyim va tavoze’li bo‘lish”. Navoiy mazkur asarida kishilarni “munosib kishilar” va “nomunosib kishilar” tarzida ikki guruhga ajratadi va “nomunosib kishilar”dan ehtiyot bo‘lishga chaqiradi.

Navoiy xalq bolalarini o‘qitish va tarbiyalash uchun maktablar ochilishini qo‘llab-quvvatlagan, maktabni xalq uchun nur manbai, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi maskan sifatida qadrlagan. Uning fikricha, maktab bolalarni bilimli qiladi, jamiyat taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratadi. Shoirning quyidagi misralari bunga yaqqol dalildir:

Bo‘lur g‘am ulug‘larga mazhab yo‘li,
Chu yoshlarga boshlansa, maktab yo‘li [6,328-b].

Ma’nosi: agar bolalar uchun maktab bo‘lmasa, kattalar ham o‘z yo‘llaridan adashadilar. Demak, xalqni ma’rifatli qilishda maktabning o‘rni beqiyosdir. Bu fikrni Navoiy Sulton Xusayn Boyqaro bilan suhbatlarida, unga yozgan xatlarida va ma’rifat masalalariga oid mulohazalarida yana bir bor asoslab beradi. Alisher Navoiyning asarlaridagi e’tiborga molik jihatlardan biri shundaki, u ilm ahllariga nisbatan cheksiz hurmat ko‘rsatgan, ustoz–murabbiylarga bo‘lgan ehtiromini yuksak qadrlagan. Asarlarida ahli fozil, ahli ilm va ahli hunarga bag‘ishlab aytilgan iliq so‘zlar bilan bir qatorda yosh bolalar tarbiyasiga doir juda qimmatli fikrlar ham bayon etilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Navoiy ta'lim-tarbiya ishlarining naqadar nozik jarayon ekanini yaxshi anglagan holda, komil insonni tarbiyalash masalasini eng oliy maqsad sifatida chuqur talqin va tadbiq etgan. Shu sababli bo'lsa kerak, umumiy o'rta ta'limning 1-sinfdan 11-sinfgacha bo'lgan darsliklarda hayoti va ijodi o'rganiladigan yagona alloma – Alisher Navoiydir. Boshlang'ich sinf "O'qish" va "Tarbiya" darsliklarida buyuk mutafakkir haqida keltirilgan ma'lumotlar, hikoyalar va uning ijodiga mansub hikmatli so'zlar, albatta, bola dunyoqarashini kengaytirishga, uni tabiat va insonlarga muhabbat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Chunki Navoiy asarlarida aql-zakovat durdonalarini o'zlashtirish barkamollikka erishishning muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zohidov V. Ulug' shoir ijodining qalbi. – Toshkent: O'zbekiston, 1970. – 152 b.
2. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. 13-jild. – Toshkent: Fan, 1967. – 155 b.
3. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – Toshkent: Istiqlol, 2003.
4. Navoiy. Nazm ul-javohir. 15 tomlik asarlar to'plami. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. 13-tom, 192–193-betlar.
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 1–20-jildlar. – Toshkent: Fan, 1987–2003.
6. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. – 98 b.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Mas’ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali 26.09.2023-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.